

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI**

**“Kasb-hunar kollejarida interfaol metodlardan foydalanish”  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy  
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs  
talabasi **Raxmonov Olim** \_\_\_\_\_

**ILMIY RAHBAR:**  
\_\_\_\_\_

**Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.**

\_\_\_\_\_sonli bayonnomasi “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_2013 yil

**TERMIZ – 2013**

## **REJA:**

KIRISH.

**I BOB.** TA'LIMNI ISLOH QILISHNING MAZMUN VA MOHIYATI.

**I.1.** Ta'lim tizimida kasb-hunar kollejarining o'rni.

**I.2.** Kasb-hunar kollejarida ta'lim mazmuni.

**II BOB.** KASB-HUNAR KOLLEJARIDA TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

**II.1.** Interfaol metodlar haqida tushuncha.

**II.2** Umumkasbiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR

## KIRISH

*Kim bilimni o'lgan dunyo, mol bilan,  
U gavharni teng qilar sopol bilan.*

*Sa'diy Sheroziy*

Jamiyatimizdagi ko'pchilik insonlar o'qituvchilarni kunlar, hafta-lar va oylar davomida o'qitiladigan fan bo'yicha asta-sekinlik bilan turli xil ko'rsatma va topshiriqlar beradigan hamda bir maromda qandaydir bilimlar majmuasini o'quvchilarga singdiradigan zerikarli mutaxassislar sifatida tushunadilar. Lekin ularning qanday ko'rsatma va topshiriqlar berishlari hamda bunday usullar qanday samara berishini ko'pchilik bilmaydi yoki tushunmaydi. Shuning uchun ham, yillar davomida ta'lim berishning bir qancha usullari va uslubiyati vujudga keldiki, ularning jamiyatdagi o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Ba'zi bir ta'lim berish usublari yosh bolalarning bilim olish jarayonini o'rganish asosida tashkil etilgan bo'lsa, boshqalari dars berish jarayonida ro'y beradigan muammolarni hisobga olgan holda tashkil etilgan. O'qitish uslubiyatining boshqa turlari esa bir qancha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy-mantiqiy modellar asosida, masalan, Suqrot uslubida, muloqot usulida yoki kor-porativ usulda tashkil qilingan. Undan so'ng o'qitishning ta'lim berish modellari asosida tashkil etish keng miqyosda amalga oshirila boshlandi. Bunda o'quvchi-talabalarning ma'lum bir soha yoki fandan bilim olishlari maxsus usullar, modellar, ta'lim standartlari yoki strategiyalar asosida amalga oshirilar edi. Ba'zi bir modellarda o'qituvchi dominant rovida bo'lib, barcha ta'lim berish vazifalarini o'zi hal qilar, boshqa-larida esa talabalarga to'la erkinlik berilib, ular demokratik tamoyillar asosida o'qitilar, yana boshqa birlarida esa talaba va o'qituvchi orasida tenglik hamda ijodiy fikr almashinish jarayoni amalga

oshirilib, o‘zaro muloqot vositasida interfaol ta’lim jarayoni amalga oshirilar edi. Lekin bu modellarning ishlatilishi va samarasi o‘quvchi-talabalarning bilim darajasiga, intilishlariga, ongining rivojlanish ko‘rsatkichlariga har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, auditoriyadagi talabalarning aksariyati bilim olishni istamaydigan va bunga intilmaydigan bo‘lsa, ammo o‘qituvchidan ularga qandaydir usullar bilan bo‘lsa ham qandaydir bilim berish talab qilinsa, u holda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har qanday model, usul yoki strategiya ham o‘z-o‘zidan ojizlik qilib qoladi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezident I.Karimovning: “...Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo‘lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha – o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi”<sup>1</sup>, - degan fikrlari g‘oyat o‘rinlidir.

Bunday hollarda ta’lim berishning eng yangi modellaridan biri kooperativ ta’lim berish modeli bo‘lib, unda talabalar va ta’lim beruvchi instruktor birgalikda ma’lum bir hayotiy masala yoki muammolarni hal qilish jarayonida tegishli malakaga yoki bilimga ega bo‘ladilar. Ammo hozirgi ta’lim berish jarayoni asosan sinfda yoki maxsus jihozlangan xonalarda talabalar va o‘qituvchining o‘zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, hozirgi davr ta’lim berish jarayonini quyidagi asosiy jihatlar bilan ifodalash mumkin:

- O‘qituvchining faoliyati nafaqat ilmiy-amaliy, balki ijodiy-artistik

---

<sup>1</sup> Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998. 135-bet.

asosda ham amalga oshirilishi lozim;

- O‘qituvchining dars berish jarayonidagi roli ancha murakkab bo‘lib, uning o‘ziga xos tarixiy va zamonaviy jihatlari mavjud. Oldingi davrlarda o‘qituvchilarning faqatgina zamonaviy bilimlar berishi talab qilinsa, hozirda ulardan tarbiyaviy, madaniy-ma’naviy, siyosiy va amaliy bilimlar berish ham talab qilinadi;

- Hozirgi paytda ko‘pchilik talabalar turli xil viloyatlardan kelganliklari va ularning bilim darajasi bir-biridan anchagina farq qilishini hisobga olganda, o‘qituvchilarning ishi yanada murakkablashadi – endi ular avvalgidan farqli o‘laroq, turli xil bilim darajasi va turli amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan talabalar jamoasida ishlashlariga to‘g‘ri ke-ladi. Bu esa ulardan ta’lim berishda yangi usul va uslubiyatlar qo‘llanishini taqozo qiladi;

- O‘qituvchilarga bo‘lgan talab ham sezilarli darajada oshdi va endi ular nafaqat ilmiy, balki ma’rifiy va amaliy bilimlarni ham puxta egallashlari zarur;

- Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo‘llanilishi o‘qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda;

- O‘qituvchilarning faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo‘naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan barcha muammolar va salbiy jihatlardan qutulish hamda ta’lim sifatini oshirishning eng asosiy yo‘llaridan biri interfaol ta’lim berish usullari bo‘lib, quyida biz ushbu zamonaviy ta’lim berish uslubiyatining bir qancha yo‘l-yo‘riqlari va qonun-qoidalari bilan imkoniyat darajasida tanishib chiqamiz. Kasb-hunar kolleji tegishli davlat

ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi: o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlagan kasb- hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarni bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- 1) akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- 2) soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashi, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- 3) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- 4) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

5) kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislariga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

O`quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish bu ularni qiziqishlari, moyilliklari, layoqatlari hamda shakllangan qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko`maklashishdan iboratdir. Bu jarayonda o`quvchi-yoshlar xalq xo`jaligi, sanoat, transport va boshqa sohalarga tegishli kasblar va ularga ehtiyojlar, shuningdeq mehnat bozorining kadrlarga bo`lgan talablari, kadrlarni shaxsga qo`ygan talablari to`g`risidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Kasb-hunarga yo`naltirish ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishining uzviy bir qismi sanaladi.

Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining qiziqishlari, moyilliklari, tug`ma layoqatlarini aniqlash maqsadida ular bilan turli psixologik-pedagogik tashxis metodikalari o`tkazilib kelinmoqda. Mazkur metodikalar Respublika tashxis Markazi tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, ular alohida-alohida metodika sifatida yaratilgan. Mazkur metodikalarni yagona tizimga keltirish ya'ni ularning majmuasini yaratish, kelgusida bu metodikalardan foydalanishni osonlashtirishni nazarda tutadi.

Kasb – hunar kollejlari ta'limda samaradorlikka erishishning bugungi kundagi dolzarbligini inobatga olgan holda bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini “**Kasb-hunar kollejlari interfaol metodlardan foydalanish**” deb tanlashga asos bo`ldi.

Kasb – hunar kolejlari o`quv – tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga Q.Olimov, D.Jalolova, B.Mirzaaxmedov, SH.Avezov, D.Ro`ziboeva kabi pedagog-psixolog olimlarimiz tomonidan qator tadqiqotlar olib borilganligi kasb-hunar kolejlari o`quv – tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish kun tartibida turgan muammolardan biri sifatida tadbiq etib kelinmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** Kasb-hunar kolejlari ta'lim jarayonida samaradolikka erishishda interfaol metodlardan foydalanishning usullari shakllarini amalda sinab ko'rib, ta'limga tadbiiq etish.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:** Belgilangan maqsadni amalga oshirishi uchun quyidagi vazifalarni bajarishni lozim deb hisobladik;

1. Kasb-hunar kolejlari o'quv jarayonida qo'llanilayotgan interfaol usullarni aniqlash.
2. O'quv fanlar blogini mavzu nuqtai nazaridan tahlil qilish.
3. Umumkasbiy fanlar o'qituvchilarining innovatsion yondashuvlarini o'rganish.
4. Maxsus fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish shakllarini ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti:** Termiz axborot texnologiyalari va maishiy xizmat kasb – hunar kolleji o'quv jarayonidan iborat bo'ldi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti:** Kasb-hunar kolejlarida o'quv jarayonida interfaol metodlarning shakllari usullari.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini:** Mamlakatimizda amal qilinib kelinayotgan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O'zbekistonda ta'limni isloh qilish borasidagi qarorlar, kasb-hunar kolejlari ta'limini yaxshilash to'g'risidagi chora tadbirlar.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:** Biz taklif qilayotgan interfaol usullar o'qitish samaradorligida yuqori natija berishi, o'quvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojini ortishi, hamkorlikda bitta mummoga turlicha yondashuvlarining ortib borishi amalda o'z isbotini topdi.

**Bitiruv malakaviy ishning yangiligi:** shundaki bakalaviriyat talabalarining bitiruv malakaviy ishi mavzusi sifatida ilk bor ishlanayotganligida.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi:** ish kirish, 2 bob, 4 bo'lim, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan

iborat bo`lib, jami (61) sahifani tashkil qiladi.

## **I - BOB. TA'LIMNI ISLOH QILISHNING MAZMU VA MOHIYATI.**

### **I.1. Ta'lim tizimida kasb-hunar kollejlarning o'rni.**

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu

ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi oʻquv muassasalari uchun taʼlim va kasb-hunar dasturlari, oʻquv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

akademik litseylarning oʻquvchilari mehnat faoliyati koʻnikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislariga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining roʻyxatini ishlab chiqish;

hududlarning jugʻrofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislariga boʻlgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimi taʼlim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini taʼminlash, ularga oʻquvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.<sup>2</sup>

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi xizmati va Vazirlar Mahkamasi Taʼlim, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar kompleksining 2010 yil 17 martdagi qoʻshma yigʻilish bayonida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida Oliy va oʻrta maxsus hamda Xalq taʼlimi vazirliklarining 134- va 62-sonli qoʻshma buyruqlariga asosan, umumtaʼlim fanlarining barcha yoʻnalishlari boʻyicha umumtaʼlim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy taʼlim muassasalarining yuqori pedagogik mahorat va tajribaga ega amaliyotchi oʻqituvchilari, yetakchi olim, metodist va mutaxassislarni jalb etgan holda 31 ta ishchi guruhi tuzildi. Mazkur ishchi guruhlar tomonidan umumiy oʻrta, oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi Davlat taʼlim standartlarining sharhlari, oʻquv dasturlari va darsliklari uzviylik, uzluksizlik

---

<sup>2</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Toshkent -1997 8-bet

hamda o'quvchilarning Yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi jihatidan tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar tayyorlandi. Tahlillar asosida o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va psixofiziologik xususiyatlariga asoslanmasdan umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga kiritilgan yoki 12 yillik majburiy ta'limga o'tish davrida quyi bosqichlarga o'tkazilgan, sinflar, ta'lim bosqichlari (umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb hunar ta'limi) mazmunida takrorlangan, izchilligi ta'minlanmagan jami 813 soat hajmdagi mavzular aniqlanib, optimallashtirildi. Shundan, 247 soat hajmdagi mavzular umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlaridan chiqarilib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, 327 soat hajmdagi mavzular esa sinfdan-sinfga o'tkazildi, 239 soat hajmdagi mavzular sinflarda takrorlanganligi uchun qisqartirilib, maqbullashtirildi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tkazilgan va sinflar kesimida maqbullashtirilgan soatlar hisobidan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'shimcha 240 soat, murakkab mavzularni kengaytirib o'qitish uchun 359 soat, yangi mavzular uchun 214 soat ajratildi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida 413 soat hajmdagi mavzular optimallashtirilib, 333 soat hajmdagi mavzularga qo'shimchalar kiritildi va to'ldirildi, qolgan 80 soati mavjud mavzular tarkibiga singdirildi. Natijada, umumiy o'rta ta'lim davlat standartlarining sharhlari va umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan 18 ta umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlari qayta ishlanib Respublika ta'lim markazi huzuridagi fanlar bo'yicha Ilmiymetodik kengashlar hamda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning fan komissiyalarida muhokama etilidi va tasdiqlandi. Bundan tashqari, barcha umumta'lim fanlari bo'yicha o'qituvchilar uchun taqvim-mavzu rejalarining namunalari ishlab chiqildi hamda optimallashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlandi. Shu asosda umumiy o'rta ta'limda foydalanib

kelinayotgan darsliklar mazmuniga ham tegishli o'zgartirishlar kiritildi, masalan, 8-sinf iqtisodiy bilim asoslari fanidan 6,3%, geografiya fanidan 3,5%, 9-sinf biologiya fanidan (sitologiya va genetika asoslari) 6,2% o'zgarishlar darsliklar mazmuniga singdirildi. Shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida, oliy ta'limning o'quv dasturlari qayta ishlanib, ularning takomillashtirilgan loyihalari tayyorlandi. Oliy ta'lim tizimidagi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining uzluksizligi va uzviyligi, fanlar mazmunidagi takrorlanishlarni bartaraf etish va o'quv reja hamda dasturlarni optimallashtirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish maqsadida, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga mos holda sakkizta bilim sohasi bo'yicha tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan tanlangan bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining uzluksizligi va uzviyligi tanqidiy tahlil qilindi. Ishchi guruhlar tomonidan tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va ushbu yo'nalishlarga mos keluvchi magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalarini, o'quv soatlarini solishtirish, o'quv dasturlari va ularning mazmunini taqqoslab chiqish, fanlar bo'yicha tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari (darslik va o'quv qo'llanmalari)ni tanqidiy tahlil qilish asosida, o'quv reja va dasturlarini optimallashtirish hamda ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini unifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlari, boshqaruv va xo'jalik yuritish sub'ektlari uchun chuqur va fundamental, ayniqsa, yuqori va innovatsion texnologiyalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatorining yangi tahriri tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tasdiqlandi. Klassifikatorga yangidan kiritilgan 4 ta

bakalavriat yoʻnalishlari va 128 ta magistratura mutaxassisliklari, birlashtirilgan 25 ta bakalavriat yoʻnalishlari va 275 ta magistratura mutaxassisliklari, shuningdek, nomi va shifri oʻzgartirilgan taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklarining davlat taʼlim standartlari rivojlangan xorijiy davlatlar va respublikada toʻplangan ilgʻor tajribalar asosida yaratildi hamda ish beruvchi yirik korxonalar va tashkilotlar, Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari va turdosh oliy taʼlim muassasalari bilan kelishildi. Bugungi kunda “Oʻzstandart” agentligiga topshirilgan 1258 ta Davlat taʼlim standartlaridan 583 tasi roʻyxatdan oʻtkazildi va bu jarayon davom etmoqda. Kun tartibidagi masalani har tomonlama muhokama qilgan holda, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari umumtaʼlim fanlari hamda oliy taʼlimda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash maqsadida, qoʻshma Hayʼat majlisi

#### **Q A R O R   Q I L A D I:**

1. Umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida oʻqitiladigan umumtaʼlim fanlari hamda oliy taʼlimda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar toʻgʻrisidagi axborot maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika taʼlim markazi huzuridagi fanlar boʻyicha Ilmiy-metodik kengashlar hamda Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash fan komissiyalarining qoʻshma qarorlari bilan tavsiya etilgan umumiy oʻrta, oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha uzviylashtirilgan oʻquv dasturlari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin va 2010—2011 oʻquv yilidan amaliyotga joriy etilsin.

3. Umumtaʼlim fanlari boʻyicha uzviylashtirilgan oʻquv dasturlarini taʼlim jarayoniga joriy etish boʻyicha monitoring guruhi 2-ilovada

- berilgan tarkibda tasdiqlansin.
4. O'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan taqvim-mavzu rejalarining namunalari hamda uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin.
  5. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari, o'quv dasturlarining mazmun-mohiyatini o'rganish bo'yicha umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining o'quv-seminarlarini o'tkazish tartibi 4-ilovaga va o'quv-mavzu rejasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
  6. Umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish bosh boshqarmasi (Y.Asadov), Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish bosh boshqarmasi (F.Ahmedov), Respublika ta'lim markazi (I.Zokirov), O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi Ta'lim standartlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish boshqarmasi (R.Nimatov), Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi (B.Raximov) ga: umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun o'tkaziladigan o'quv-seminarlarini belgilangan muddatlarda yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash; pedagog xodimlarning avgust kengashlarida umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha sho''ba ishlarini birgalikda tashkil etish; - joriy yilning 15 avgustiga qadar uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari, o'quv dasturlarini Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining ta'lim portallariga joylashtirish vazifalari yuklatilsin.
  7. Xalq ta'limi vazirligi Moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (U.Daulanov), Respublika ta'lim markazi (I.Zokirov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

(A.Narimbetov), O'рта maxsus kasb-hunar ta'limi markazi buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi(E.Ermatov)ga:

- ichki imkoniyatlar doirasida hamda homiylarni jalb etgan holda barcha umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish yuzasidan metodik tavsiyalar va taqvim-mavzu rejalar namunalarini chop ettirish uchun mablag'larni izlab topish;

- umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari va o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich o'qitish tillari (rus, qoraqalpoq va boshq.) ga tarjima qilish;

- umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari va o'quv dasturlari, ularni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tayyorlangan metodik tavsiyalar, taqvim-mavzu rejalar namunalarini har bir ta'lim muassasasiga yetkazish vazifalari yuklatilsin.

#### 8. Xalq ta'limi

vazirligi Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish bosh boshqarmasi (F.Ahmedov), A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institute (M.Aliyev), Oliy va o'рта maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi (B.Raximov), O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti (X.Rashidov) va hududiy pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlariga:

- umumta'lim fanlari o'qituvchilarining malakasini oshirish kurslari o'quv rejalarini uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari hamda o'quv dasturlari mazmunidan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish;

- umumiy o'рта, o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga

joriy etish bo'yicha amaliy-metodik yordam ko'rsatish vazifalari yuklatilsin.

#### 9. Oliy

va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari (U.Tashkenbayev) umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida, qayta ishlangan va takomillashtirilgan oliy ta'limning o'quv dasturlari loyihalarini Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasidan o'tkazish, kelishish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlatish hamda 2010-2011 o'quv yilidan amaliyotga joriy etish yuzasidan tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni ko'rsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri, barcha viloyatlar xalq ta'limi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmalariga:

- 2010-2011 o'quv yilidan umumta'lim fanlaridan uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha aniq tashkiliy pedagogik chora- tadbirlarni belgilab, amalga oshirish;
- umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun o'tkaziladigan o'quv-seminarlarining muddatida, tegishli mutaxassislarni to'liq jalb etgan holda, yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash;
  - har bir ta'lim muassasasini o'quv dasturlari, taqvim – mavzu rejalar namunalari va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar bilan ta'minlash;
- pedagog xodimlarning avgust kengashlarida umumta'lim fanlari bo'yicha sho'bbalar ishini, umumta'lim maktablari, akademik litsey va

kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarini jalb etgan holda, birgalikda o'tishini ta'minlash;

- umumta'lim fanlaridan uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish ishlarining monitoringini olib borish va har chorak yakuni bilan Xalq ta'limi vazirligi va O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi monitoring guruhiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin. Belgilab qo'yilsinki, umumta'lim fanlaridan uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish, uning monitoringini olib borish, natijalarni tahlil etib, hisobotlar tayyorlash ishlarini tashkil etishga ta'limning hududiy boshqaruv idoralari va ta'lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas'uldirlar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qaror bizning fikrimizga bitta misol. Prezidentimiz taklifi va tashabbusi bilan ta'lim tizimining bir bo'g'ini sifatida faoliyat yuritayotgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bugun dunyo miqiyosida o'iga xos o'ringa egadir.

Chunki bunda o'quvchi bilim olish bilan birga kasbkorning o'zi tanlagan yo'nalishi bo'yicha malakasi oshadi. Amaliy ko'nikmaga ega bo'ladi.

Birgina Surxondaryo viloyati akademik litseylar va kasb hunar kollejlarning soni 120 dan oshib ketdi. Ularning yo'nalishi turlicha bo'lib, barchasi zamonaviy ko'rinishdagi o'quv binosiga egadir.

Dunyo shiddat bilan rivojlanayapti. Xalqimiz azal-azaldan "Bir yigitga qirq hunar ham kam" degan maqol bejiz aytilmagan bo'lsa kerak.

Kasb-hunar kollejlari tizimidagi ma'lumotlar azmuni ham turli xil yo'nalishda kasbi bilim va malaka berish jarayoniga qaratilgandir.

Bilim va malakaviy an'anaviy emas balki interfaol, interaktiv metodlarga asoslanishi davriy ham ekanligi va bu jarayonda kasb-hunar mutaxassis o'qituvchilarining bilimdonligi, faolligi tashabbuskorligi o'z novbatida ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Islohotlar mazmunida faqat ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi ta'minotini yangilash emas balki, unda ta'lim oluvchi yoshlar va ta'lim beruvchi ustoz murabbiylarning ongida tafakkurida, intilishi va qiziqishida ham islohotlar olib borilishini alohida e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.


## I.2. Kasb-hunar kollejlarda ta'lim mazmuni.

**Davlat ta'lim standarti.** Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy tendentsiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatilishi) hisoblanadi.

Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

Turli ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir hillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida halqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini rivojlanishi tendentsiyalarining hisobga olinishi.




O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni bilan bir qatorda ta’lim standarti asosiy me’yoriy hujjat hisoblanadi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me’yor», «namuna», «andoza», «model» ma’nolarini anglatadi. Standart yordamida respublika miqyosidagi turli ta’lim muassasalarida ta’limning barqarorlik darajasini ta’minlashga erishiladi, o‘quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o‘quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O‘quvchi davlat tomonidan belgilangan ta’lim standarti bilan cheklanishlari mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug‘ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo‘lgan yoki qiziqarli bo‘lmagan fanni o‘rganishda o‘quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi. Ushbu holatda o‘quvchi o‘ziga mos keladigan ta’lim yo‘lini anglagan holda va mustaqil tanlab, o‘z qiziqishlari, istagi, qobiliyatlari va intilishlarini amalga oshirishga imkoniyatga ega bo‘ladi. shakli va mazmuni bo‘yicha tushunarli ifoda etilgan standart talablari oldindan o‘quvchilarga va ularning ota-onalariga etkaziladi.

Ta’limni standartlashtirish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida allaqachon o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim ma’lum darajasini belgilab bilan amalga oshiriladi. Ammo “standart” termini o‘zi ta’limga nisbatan yaqin davrlardan qo‘llanila boshlangan. Davlat ta’lim standartlari ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. Ular ta’lim mazmuni minimal hajmini qayd etish va ta’lim darajasining quyi chegarasini belgilab beradi.

Ta’lim standartini kiritishdan avval bunday majburiy qoidalar mavjud emas edi. O‘zlashtirishning aniq belgilangan chegaralari yo‘qligi XX asrning 80-yillarida ko‘pchilik bitiruvchilarining haqiqiy bilim darajalari juda past bo‘lishiga olib keldi.

Davlat ta'lim standartlarini yaratish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini (1992 yil) qabul qilingandan keyin boshlandi. Mazkur hujjatning 6-bandida jahon ta'limi amaliyoti me'yorlariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish zarurligi ta'kidlab o'tiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida (1997 yil) O'zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingandan so'ng ta'lim dasturlari yangi avlodi yaratildi. Jahon amaliyoti tajribasi asosida yaratilgan ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarning minimal darajasini belgilashga imkon berdi.



Bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining "o'lchamidir", ya'ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o'quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.<sup>3</sup>

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning mazmunini shakllantirish ko'rib chiqilgan tamoyillarini zamonaviy o'rta maktablar va akademik litseylari uchun tanlab olish quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;
- ilmiy va amaliy ahamiyati;
- ta'lim mazmunining murakkabligi, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi;
- ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;
- maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;
- umumiy o'rta ta'lim mazmunini qurishda halqaro tajribalarni hisobga olish.

**Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar.** Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi:

- 1) umumiy nazariy bosqich;
- 2) o'quv bosqichi;
- 3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi, ya'ni, ta'lim mazmunining o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi.

---

<sup>33</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.

Umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi mazmuni davlat taʼlim standarti, oʻquv rejalari mazmunida namoyon boʻladi. Oʻquv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab oʻquv rejasi.

Umumiy oʻrta hamda oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch oʻquv rejasi davlat taʼlim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy meʼyoriy hujjat boʻlib, u namunaviy va amaliy oʻquv rejalarni ishlab chiqish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Tayanch oʻquv rejasi davlat taʼlim standarti tarkibiy qismi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning namunaviy oʻquv rejalari tayanch oʻquv rejasi asosida tuziladi va Oʻzbekiston Respublikasi Halq taʼlimi hamda Oliy va oʻrta maxsus taʼlim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga moʻljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi oʻquv rejalari ishlab chiqiladi.

Oʻquv rejasi – meʼyoriy hujjat hisoblanib (taʼlim muassasasi sertifikat) quyidagilarni belgilaydi:

- oʻquv yili, chorak (semestr)lar va taʼillarning davomiyligi;
- ushbu taʼlim muassasasida oʻrganiladigan oʻquv fanlari tartibi;
- oʻqish yillari boʻyicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan boʻyicha yaxlit taʼlim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni oʻrganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni oʻrganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

Oʻquv rejasida, yana shuningdek, aniq bir oʻquv muassasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, oʻquvchilarning erkin tanlovi boʻyicha fakultativ va majburiy mashgʻulotlar aks ettiriladi.

O‘quv dasturi – muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me‘yoriy hujjat.

Dasturda o‘quv materialining ta‘limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo‘yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko‘rsatilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishi o‘qitish jarayoni muvaffaqiyatliligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O‘quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo‘lishi mumkin.

Namunaviy o‘quv dasturi u yoki bu ta‘lim sohasiga nisbatan davlat ta‘lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O‘quv dasturlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ushbu fanni o‘rganish maqsadlari, o‘quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o‘qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish hati;
- o‘rganilayotgan materialning tematik mazmuni;
- kursning alohida savollarini o‘rganishga o‘qituvchi sarflaydigan tahminiy soatlari hajmi;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro‘yhati;
- fanlararo va kurslararo bog‘liqlikni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar;
- o‘quv uskunalari va ko‘rgazmali qo‘llanmalar ro‘yhati;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o‘quv dasturlari Halq ta‘limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo‘ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomonidan ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti

ta'riflanadi, o'quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta'minlash imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o'quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o'quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo'lishi, u yoki bu nazariyalarni o'rganishga mualliflik yondashuvi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi retsenziyalariga ega bo'lishi kerak va ular mavjud bo'lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarning Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

O'quv fani ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutahassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manbadir.

O'quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta'limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. O'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quv fanlarini ilmiy bilimning umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtai nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi.

O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi. Darslik muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni

beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Halq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqati nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Darslik bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra ega asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo'lib, mukammal darsliklarning etishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o'qituvchilar va o'quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

2) ahborot vazifasi o'quvchilarga ahborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

3) nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati

hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

4) muvofiglashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (haritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

5) rivojlantiruvchi –tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

6) o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Ta'lim mazmuni o'quv material darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli hil o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix hrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, himiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (ahborot, mashq qilish, tekshirish). Bugun kasb – hunar ta'limi mazmunini belgilovchi davlat xujjatlari bilan bir qatorda o'qituvchilar tomonidan o'quvchining shaxsiy faolligini qiziqish va ehtiyojini rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator ta'lim texnologiyalari, interfaol va interaktiv metodlar tizimi ham yaratilib ta'lim jarayoniga tadbiiq etilib kelinmoqda.

Shuningdek o'quvchi ongiga berilayotgan bilim mustahkam o'rnashishi va uni o'quvchi anglab, fahmlab olishiga ko'maklashuvchi bir qator o'quv vositalari tizimi yaratilayapti. Masalan o'quv didaktik materiallar, flipchartlar, markerli bloknot doskalar, tarqatma materiallar, mozaikalar,

videodasturlar, didaktik o‘yinlar ta’lim jarayoniga olib kirilayaptiki ushbu vositalar o‘quvchilarning auditoriyadagi “vaqtini” samarali va mazmunli o‘tishni ta’minlayapti shuning uchun bevosita M.Maxmudov tomonidan “o‘quv didaktik materiallarni loyihalash prinsiplari” uslubiy qo‘llanmasida e’tirof etilgan “o‘quvchi va uqituvchining faoliyati ham didaktik vositalar majmui bo‘lib hisoblanadi” degan haqli fikrlarni aytgan kasb-hunar ta’limga xos desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki kasb – hunar eggalashda har bir insonda o‘ziga xos iqtidor, qobiliyat, qiziqish, o‘quv va ehtiyoj bo‘lishi barobarida kasb-hunar ta’limi o‘qituvchisida ham o‘qitayotgan fanining o‘rgatayotgan kasb-hunarning mazmun mahiyatini, o‘ziga xosligining, jamiyatdagi o‘rnini anglata oladigan darajadagi bilimi mahorati kasbiy tajribasi bo‘lishi lozim.

Ana shu ikki faoliya o‘quvchi va uqituvchi faoliyati uyg‘un rivojlansagina ta’lim mazmuni samarali bo‘ladi deya olamiz.

## **II-BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.**

### **II.1. Interfaol metodlar haqida tushuncha.**

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog-olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

*Nega o'qitamiz?*

*Nimani o'qitamiz?*

*Qanday o'qitamiz?*

savollariga javob izlash bir qatorda

*Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?* –degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq

kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko`rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug`ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo`nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e`tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchidan*, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish masalasiga alohida e`tibor qaratilgan.

*Ikkinchidan*, pedagogik texnologiyalar o`quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchidan*, pedagogik texnologiya o`qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo`lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To`rtinchidan*, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo`llashga asoslanganligi sababli, ularning qo`llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi.

O`quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o`quv-tarbiya jarayonida qo`llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o`quvchini kim o`qitayotganligi va o`qituvchi kimni o`qitayotganiga bog`liq.

Pedagogik texnologiya asosida o`tkazilgan mashg`ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o`z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o`z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovasion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o`zlashtirish va o`zlashtirgan bilimlarini o`zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish uslublari interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, tajriba o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Innovasiya (inglizcha-“ innovation”) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoluyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter” – bu o`zaro. “act” – harakat qilmoq) – o`zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo`lishni anglatadi. Boshqacha so`z bilan aytganda, o`qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo`lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo`ladilar, ular biladigan va o`ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Interfaol ta`lim jarayonida dars o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol metod — ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati, ta`siri ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni

rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari — norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik, bu — o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi.

Interfaollik — o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yekt-sub'yekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o'q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi.

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media-ta'lim metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirilgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin.

Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turli yo'nalishlardagi qobiliyat qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchaniik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy

o`yinlarga ajratiladi. Didaktik o`yin turlarini tanlashda, quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

— ishtirokchilarning tarkibi bo`yicha, ya`ni o`g`il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o`yinlar;

— ishtirokchilarning soni bo`yicha: yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda o`yinlar;

— o`yin jarayoni bo`yicha — fikrlash, o`ylash, topag`onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo`naltirilgan;

— vaqt me`yori bo`yicha — dars, mashg`ulot vaqtining reja bo`yicha ajratilgan qismi, o`yin maqsadiga erishguncha, g`oliblar aniqlanguncha davom etadigan o`yinlar.

Ayrim didaktik o`yinli dars shakllari:

— ishchaniik o`yini darsi — mavzu bo`yicha masalalarni hal etish jarayonida o`quvchilarning faol ishtirok etishini ta`minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi;

— rolli o`yin darsi- mavzu bo`yicha masalalarni o`rganishda o`quvchilarga oldindan ma`lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;


— boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo`lgan mavzular bo`yicha tashkil qilingan dars bo`lib, o`quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta`lim jarayonidagi faollikni ta`minlaydi. Bularning bari o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to`liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darslarni nechog`li qiziqarli, foydali va samarali tashkil etish o`qituvchilarning ijodkorligi, tashabbuskorligiga bog`liq. Xulosa qilib aytganda, o`qituvchi faqat o`qitibgina qolmay, o`quvchini mustaqil mutolaa qilish orqali ta`lim olish ko`nikmalarini shakllantirishi, o`quvchilarni darslik,

qo'llanma, internet xabarlarini, manbalarni tahlil qilish orqali bilim olishga o'rgatishi, o'quvchi ta'lim jarayonida eshitib, ko'ribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini o'rganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini ta'minlashi zarur. Agar o'qituvchi interfaol ta'lim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o'qib-o'rganib, o'zlashtirib, o'z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat ta'lim standartlarini va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlarini to'la o'zlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Demakki, har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolalarning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

Interfaol darslarda o'qituvchining o'zini qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.



**Aqliy hujum** - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni yechishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalarda o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

### **Guruhlarda bahs, munozarani o'tkazish usuli**

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi dastlab ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- "hujum"dan maqsad - muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;

- o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsa-da, hech biri rad etilmaydi;

- boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;

- taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.

3. Boshlovchi o'ziga yordamchi saylaydi va u yuzaga kelgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi. Agar biror bir kishi tomonidan "aqliy hujum"ni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri "charxlanishi" uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. "Aqliy hujum" ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishadilar va natijada o'rtaga qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

Agar guruhda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko'pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchilarga o'z fikrini bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

**Kichik guruhlarda ishlash metodi.** Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, auditoriyada bir-biridan o'rganishga imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi. Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

**Rolli va ish o‘yinlari metodlari.** Mehnat va o‘qish bilan bir qatorda o‘yin ham inson faoliyatining eng asosiy turlaridan biridir. O‘yinning strukturasi o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- maqsadlarni qo‘yish.
- rejalashtirish.
- amalga oshirish (maqsadni).
- natijani tahlil qilish.

O‘yinli faoliyatning motivatsiyasi ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musobaqa elementlarining borligi, ehtiyojlarni qondirish, o‘zini anglash va o‘zini safarbar qilish bilan ta‘minlanadi. Rolli o‘yin –bu auditoriya oldida o‘ynaladigan kichik sahna asari. Muhim darajada bu improvizatsiyadir (tayorgarliksiz ijod etish). Sahna ko‘rinishining mazmunini va asosiy fikrlarni belgilab, trener ya'ni seminarni olib boruvchi unda ishtirok etishga rozi bo‘lgan qatnashchilarga vaqt berishi kerak, bu vaqt ichida qatnashchilar gapiradigan matnlarni (alohida yoki birgalikda )o‘ylab oladilar. Shundan keyin trener sahna o‘yinini boshlash mumkin. Bu hikoya ko‘rinishida (hikoyani aytuvchi va asosiy personajlar bilan) yoki biron-bir vaziyatda (u yerda asosiy personajlar o‘zaro harakat qilishadi, trener va boshqa ishtirokchilar yordamida dialog, suhbat o‘ylashlari mumkin) amalga oshirish mumkin. Rolli o‘yin qisqa, uzoq davom etmaydigan bo‘lsa yaxshi natijalar beradi va keyingi muhokamaga ham vaqt qoladi. Qatnashuvchilar izohlab yoki savollarga javob berishlari mumkin. Ba'zan qatnashchilar agarda u ishga yordam bersa, fikrlar bildirish, savollar berish, hattoki o‘yinga kirishishlari uchun imkoniyat bo‘lishi zarur. O‘quvchilar o‘zlari munozarani olib borish yoki kichik guruhlarda muammolarni hal qilish maqsadida

birgalikda ishlab yetakchi rolini ham o'ynashlari mumkin. Rollarning bunday almashuvi ularga yo'l boshchilik malakalarini egallashga yordam beradi. Hech kim o'qish doirasidan o'chirilmaydi va hamma o'z xohishiga qarab rahbarlik rolini o'ynashi mumkin. O'qitishning bunday usuli ko'p qatnashchilarga odatiy emas, lekin u ko'proq hamkorlikka yo'naltirilgan va o'qitishning demokratik jarayonining zarur elementi hisoblanadi.

Trener o'quvchilarga o'z fikrlarini tushuntirib berishlariga yordam berish maqsadida ularni munozaraga jalb qiladi. Ularning fikrlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi. Munozara davomida trenerdan qatnashchilarga ular egallagan mavqyelaridagi ziddiyatlarni topish va hal qilishda yordam berish talab qilinadi. O'qish jarayonini qiziqarli va oson tushunadigan bo'lishi uchun qator mashqlar, munozara va o'yinlar bilan ta'minlangan. Bundan tashkari, o'qishning borishida o'rganilayotgan materiallarga tanqidiy munosabatni rivojlantirishga yordam beruvchi analitik savollar va topshiriqlar bor.

Interfaol usullar qanchalik samarali bo'lishi tashxis qilinmasin o'qituvchi avvalo tanlayotgan usul qay darajada u o'qitadigan mavzu va auditoriyadagi talabalar o'quvchilar yoshi jarayoniga munosabati qanday darajada ekanligini aslo unutmasligi lozim bo'ladi. Chunki to'g'ri tanlangan har bir usul yoki uslub vosita albatta o'z samarasini berishi shubhasizdir.

Sir emaski juda ko'p o'qituvchilar interfaol interaktiv texnologiyalarni mohiyatini haliyam to'la o'zlashtirib olib qo'llayotganlari yo'q.

Yana bir guruh o'qituvchilar esa ana'naviy "o'qitish usulidayam yetarli bilim berish" mumkin degan aqidadan uzoqlansa olmayotganligi ham mavjud holat.

Ta'lim olishga va ta'lim berish jarayoniga munosabat ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlar, inson hayotiga kirib kelayotgan yangilanishlar sabab o'zgarib borar ekan, zamonaviy ta'lim maskanlarida faoliyat

yuritayotgan professor o'qituvchilar o'zlarining kasbiy malakalari, mahoratlarini dars o'tish metodikalarini ham davr ruhiyati va ehtiyojiga mos holda rivojlantirib borsalar interfaol usullardan foydalanib ta'limni tashkil etish ham yuqori natija beradi.

## **II.2. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.**

Zamonaviy sharoitda ta'limning dolzarb muammolaridan biri uni interaktiv usulda tashkil etish bolib qolmoqda.

Ta'lim sohasi beto'xtov yangilanib borayotgani sir emas va bu o'z navbatida dars samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlash o'rinli. Ayni paytda darslar davomida o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan „shaxsiy nuqtayi nazariga ega shaxslarni tarbiyalash maqsadi ustuvorlik qilmoqda. Bu maqsadga talimni interaktiv usulda tashkil etish orqali erishish mumkin.

«Interaktiv» so'zi (inglizcha «inter» — o'zaro va «akt» — harakat) birgalikda faol harakat qilish degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki, o'qitish 3 xil: passiv, faol va interfaol usullarni qamrab oladi.

**Passiv usulda** o'qituvchi ma'ruza qiladi, og'zaki tushuntiradi. O'quvchi uy vazifani darslik asosida bajaradi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yaqin hamkorlik bo'lmaydi.

**Faol usul.** O'qituvchi mavzuni bayon etish uchun bor kuch- mahoratini ishga solib, uni dalillar, ko'rgazmalar, didaktik tarqatma materiallar yordamida izohlashga harakat qiladi: mavzu yuzasidan fikr almashadi, amaliy topshiriqlar, ijodiy ishlar beradi. O'quvchi uy vazifasini mustaqil ishlash, o'tilganlarni takrorlash orqali bajaradi.

**Interfaol usul.** O'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhitni yuzaga keltiradi, o'quvchilarning o'zaro fikr almashishiga imkon beradi. Topshiriqlar birgalikda hal etiladi, to'plangan ma'lumotlar asosida o'quvchilar bahs-munozaraga kirishishi ham mumkin. Har bir ishtirokchi o'zini dars jarayonimng

Muallifidek his etadi. Interaktiv usul yordamida mavzuni o'zlashtirishga erishiladi.

«*Muzyoralar*» dars o'tilayotgan guruhda o'quvchilar befarqligining oldini olishga va dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni yoki talabalarga ruhiy bosim (ta'sir) bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol (aktiv) faoliyat turlaridir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan «muzlash» ning oldini olish va agarda bunday muzlash hosil bo'lgan bo'lsa, uni «yorib yoki eritib yuborish» uchun ishlatilishi mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar «muzyorar»larni ta'lim-ning boshlang'ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o'quvchilar bilan yoki o'quvchilararo muloqot ma'lum bir sabablarga ko'ra qiyinlashganida ham ishlatish mumkin. Masalan, o'quvchilar o'z millatlari, ish joylari, jinsiga bog'liq ravishda doimiy guruhlar tuzib olganlarida, ularni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish uchun ham «muzyorar»lar muvaffaqiyatli ravishda qo'llanilishi mumkin. Ba'zi turlarga oid «muzyorar»lar talabalarning bir-birlari bilan tanishishlariga mo'ljallangan bo'lib, guruhlardagi shaxslarning bir-birlariga savol berishlarini, ularning o'qish va ish sharoitlari haqida o'zaro ma'lumot olishlarini, nimani yoqtirishlari haqida mulohaza qilishlarini va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi. Buning sababi shundaki, o'quvchi, talaba yoki tinglovchilar darslarning boshlanishida bir-birlarini unchalik yaxshi bilmaydilar va ular orasidagi muloqot unchalik yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'ladi. Shu sababli, ular orasidagi «muzdek» aloqani qandaydir usullar bilan eritib, do'stona va iliq munosabatlar o'rnatish lozim bo'ladi, aks holda, yuqorida zikr qilingan holatlar ta'lim berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, «muzyorar»lar tashkil qilishda guruhni yaxshi bilish va uni guruhdagi talabalar xususiyatlariga imkoniyat darajasida moslashtirish zarur bo'ladi, aks holda noqulay ahvolga

tushib qolish ham ehtimoldan xoli emas.

***Masalan, quyidagi turdagi ommaviy tadbirlar «muzyorlar» larga misol bo‘la oladi:***

1. Guruhdagi o‘quvchilarga doira shaklida turish so‘raladi va ularning bir-birlariga kichkina va yumshoq ko‘ptokchani (yoki buyumni) ularning nomlarini aytgan holda otilishi tashkil qilinadi. O‘quvchilar bir-birlarining nomlarini yaxshi bilib olganlaridan so‘ng, otish tezligini birmuncha oshirish ham mumkin bo‘ladi.

2. Guruhdagi o‘quvchilarga o‘zlarning familiyalarini yoki ismlarini alifbo bo‘yicha tartiblab chiqishni topshirish va bir joylarda tug‘ilganlarni aniqlash ularning o‘zaro tanishishlariga turtki bo‘ladi.

3. Barchaning nomini kichkina karton qismlariga yozgan holda ularni bir savatchaga solish va har bir o‘quvchi uni savatchadan tasodifiy ravishda tanlab olganidan so‘ng, o‘sha nomli o‘quvchini topishi ham tanishish jarayonini ancha tezlashtiradi.

«***Kuchaytirgichlar***» yoki «***Aktivator***»lar darsni faollashtirishning shunday tadbirlariki, ular o‘quvchilarning faolligini va ta’lim bilan uzviy bog‘liq xatti-harakatlarini ma’lum darajada hamda ma’lum vaqtda kuchaytirish uchun qo‘llaniladi. Ular dars jarayonining har qanday qismida ham muvaffaqiyat bilan qo‘llanilishi mumkin, ammo dars davomida uch martagina qo‘llash yaxshi natijalarga olib keladi va bu pirovard natijada o‘quv jarayonining mahsuldorligini sezilarli ravishda oshiradi. Ularning qo‘llanilishi ayniqsa quyidagi paytlarda maqsadga muvofiq:

- ovqatlangandan so‘ng o‘quvchilarning mudroq kayfiyatini uyg‘otish uchun;

- dars paytidagi kofe yoki choy ichish uchun ajratilgan qisqa tanaffuslardan so‘ng;

- dars uzoq muddat davom etib, talabalarning ko‘pchiligi mavzu

bo'yicha bilim olishdan sezilarli ravishda charchaganliklari bilinib qolgan taqdirda.

Ushbu tadbirlarning tub ma'nosi nafaqat o'quvchilarning faolligini oshirish, balki quyidagilar sababli tufayli hamdir:

- Talabalarning tegishli mavzu bo'yicha ta'lim olishga tayyorgarlik darajasini sezilarli ravishda oshirish uchun. Masalan, u yoki bu sabablarga binoan o'quvchilarning passivlik darajasi yaqqol ko'rinib turganida, ularning ba'zilari yoki ba'zi bir guruhlar umumiy guruhda dars o'tishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ayon bo'lib qolganda, tala-balarning bir qanchasi esnashni boshlaganda, bunday usulni qo'llash yaxshi natija beradi;

- Darsga nisbatan qiziqish uyg'otish va uning qiziqarlilik darajasini oshirish uchun. O'qituvchi dars berayotganida unga o'quvchilar-ning qiziqishi uchun, avvalo, uning o'zi darsga qiziqish bilan yonda-shuvi lozim. Kuchaytirgichni o'zingiz berilib va qiziqqan holda tashkil qilsangiz, bu ularda ham ijobiy emotsiyalarni uyg'otadi. Bevosita ta'lim ko'proq bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, katta yoshdagilarni esa amaliy va hayotdan olingan misollar bilangina qiziqtirish mumkinligini zinhor yodingizdan chiqarmang;

- Tashqi muhitning ta'sirini va oqibatlarini iloji boricha kamaytirish uchun. Masalan, kunning uzunligi, darslarning haddan tashqari cho'zilib ketganligi, issiq xonalarda ta'lim olish, toza havoning yetishmasligi, dars materialining qiyinligi va uni o'zlashtirishdagi murakkabliklar o'quvchilarda dars materialiga befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, kuchaytirgich ishlatishdan maqsad – o'quvchilarni bu holatdan chiqarish yoki imkoniyat darajasida «uyg'otishdir»;

- Ta'lim olish jarayonidan qoniqtirish va xursandlik holatini yuzaga keltirish. Qiyin mavzulardan dars berganda, kuchaytirgichlar orqali uni qiziqarli qilishingiz va o'quvchilarda ma'lum ma'noda uyg'onish hosil qilishingiz mumkin, chunki bunda Siz qiynalishingiz mumkin bo'lgan

sharoitdan muvaffaqiyatli chiqib ketish yo‘lini topdingizgina emas, balki, umid qilamizki, o‘quvchilarni kuldira ham oldingiz.

Kuchaytirgichlar sifatida xilma-xil xatti-harakatlar yoki o‘yinlar ishlatilishi mumkinki, ular guruh va mavzu tabiatiga mos kelsin. Ba’zi kuchaytirgichlar raqobat muhitini yuzaga keltirishi, ba’zilar esa «regressiv» harakatlardan iborat bo‘lib, yoshlikni eslatishi va ba’zi birlari yaratuvchanlikni talab qilishi mumkin. Bu ularning fikrlash jarayonini ochiq va erkin qiladi, yangi g‘oyalar yaratishga olib keladi hamda ulardagi foydali ma’lumotlar miqyosini ancha oshiradi. Misol sifatida quyidagi kuchaytirgichni berishimiz mumkin:

Guruhdagi talabalar doira bo‘lib turadilar va har birining o‘z raqami bo‘ladi. Ularning biri markazda turadi va o‘zinikidan farqli bo‘lgan ikki raqamni aytadi. Bu raqamlarga tegishli bo‘lgan ikki o‘quvchi joylarni almashishlari lozim, lekin ularga buni bajarishda markazda turgan halaqit berishi mumkin, chunki u ham shu joylardan biriga turib olishga harakat qiladi. Joy ololmay tikka turib qolgan o‘quvchi markazda qoladi va endi u markazda turib, yana ikki shaxsning raqamini aytadi va hokazo. Har bir bilimli va mavzuning asl mohiyatini tushu-nadigan o‘qituvchi hech bir qiyinchiliklarsiz «kuchaytirgich» larning xilma-xil, qiziqarli va turfa turlarini o‘ylab topishi mumkin. Lekin xilma-xil «aktivator»larni qo‘llaganda doimo ta’lim berishning maqsadi qiziqarli vaqt o‘tkazish emas, balki talabalarga tegishli bilim berish kerakligini ham hech qachon yoddan chiqarish kerak emas. Ba’zi paytlarda ushbu aktivatorni ishlatish o‘quvchilarning yashash va hayot sharoitiga mos kelmasligi hamda kerak bo‘lmagan paytlarda o‘tkazilishi salbiy natijalarga ham olib kelishi mumkin. Demak, ularning turini va ishlatilish vaqtini puxta o‘ylab va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish lozim. Masalan, ba’zi bir fizik harakatlar qilish bilan bog‘liq bo‘lgan aktivatorlarni ishlatishda, uni ushbu dars xonasida bajarish mumkinmi, tashqarida

bajarishga ham imkoniyat bormi, o‘quvchilar uni bajara oladilarmi, ushbu tadbir ba’zi bir talabalarning salbiy reaksiyasini keltirib chiqarmaydimi va hokazo kabi masalalarni o‘rganib chiqish foydadan xoli bo‘lmaydi. Ba’zi talabalar (ayniqsa, katta yoshdagilar) ba’zi bir aktivatorlarni bema’ni narsa deb qabul qilishlari ham mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, auditoriya talab va takliflarini ham hisobga olishni asosiy omilga aylantiradi, aks holda o‘qituvchi yaxshilik qilaman deb, noqulay ahvolga tushib qolishi ham mumkin. Bu borada «yaxshilik qilayapman» deb o‘ylash qabilidagi bir hikoyatni ham keltirishimiz ham mumkin: Bir obo‘uli ruhoniylar kasblarga baho berganda, eng yomon kasb deb shifokorlikni tanlagan ekan. Undan nima uchun shunday deysiz, deb so‘raganlarida, u bunday deb javob bergan: *«Alloh insonlarga ularning qilgan gunohlari uchun jazo beradi, shifokor esa doimo bunga halaqit berib, ularni gunohlari uchun yuborilgan jazodan forig‘ qilishga va qutultirishga intiladi»*.

Endi yuqoridagi aytganlarimiz tushunarliroq bo‘lishi uchun bisotimizdagi ba’zi bir o‘yinlar, kuchaytirgichlar, muzyoralar va aktivatorlardan misollar keltiramizki, Sizga ularning mohiyati kunday rav-shan bo‘ladi qoladi:

**O‘yinning nomi:** *«Maqollar o‘yini»*

**O‘yinning turi:** Faollashtiruvchi (Aktivator)

**Maqsad:** O‘quvchilarning bir-birlarini yaxshiroq tanib olishlari uchun

**Vaqt:** 20-30 daqiqa

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha kattalikda

**Ishlatiladigan materiallar:** Maqollar yozish uchun qog‘oz bo‘laklari va guruh uchun yetarli bo‘lgan maqollar turkumi.

**Amalga oshirilishi:**

Qatnashuvchilarning har biriga maqolning yarmi yozilgan qog‘oz bo‘lagi berilib, uning qolgan yarmini topish va yozish topshirig‘i beriladi.

Ular maqolning keyingi qismini biladigan shaxsni o'quvchilar orasidan topishlari lozim bo'ladi. Bunday qatnashuvchi topilganidan so'ng ular bir-birlarini yaxshiroq bilish uchun bir qancha vaqt suhbatlashadialr. Keyin esa ular katta guruhga maqolni to'laligicha aytib berishlari lozim bo'ladi.

**O'yinning nomi:** «Haqiqat va yolg'on»

**O'yinning turi:** Faollashtiruvchi (Aktivator)

**Maqsad:** Tegishli mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini yanada oshirish

**Vahti:** 10-15 daqiqa

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha

**Ishlatiladigan materiallar:** O'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha har bir talaba uchun qog'oz bo'lagida yozilgan hamda iloji bo'lsa mavzu bilan bog'liq bitta rost va bitta yolg'on misol, dalil, fakt, qoida, ko'rsatkich, so'z yoki misol beriladi.

**Amalga oshirilishi:**

O'qituvchi har bir talabaga ma'lumotlar yozilgan qog'oz bo'laklarini tarqatadi va ularga 4 talabadan iborat guruhlariga bo'lingan holda buni muhokama qilishni topshiradi. O'yin so'ngida har bir guruhdagi bir talaba guruhga tegishli barcha ma'lumotlarni tahlil qilib berishi lozim bo'ladi. Ya'ni, u bularning ichida qaysi biri to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini aytib, talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilim-larini oshiradi.

**O'yinning nomi:** «*Ism belgilari*»

**O'yinning turi:** Kirish qismida qo'llanilishi mumkin.

**Maqsad:** O'quvchi (talaba)larning bir-biri bilan tanishishlariga yordam beradi va keyinchalik ularning o'zaro birgalikda ishlashlari uchun ko'mak beradi.

**Vahti:** 5-10 daqiqa

**Guruh kattaligi:** 30-35 kishidan ortiq va bir-birini yaxshi

bilmaydigan guruhlar uchun

**Ishlatiladigan materiallar:** Har bir shaxs uchun oldindan chop qilingan ism yozilgan belgilar (nishonlar).

**Amalga oshirilishi:**

Guruhning qanday ajoyib va bilimdon ekanligi haqida soʻzlagan holda ushbu oʻyin boshlanadi. Barcha *ism belgilarini* tasodifiy tarzda oʻquvchi (talaba)larga tarqatib chiqing. Bunda hech bir kimsa oʻz nomi yozilgan ism belgisini olmasligini nazorat qilib turish lozim. Har bir shaxs oʻzidagi ismi yozilgan shaxs bilan uchrashishi va u bilan bir necha daqiqa suhbat qilishi kerak. Oʻquvchilar bir yoki bir necha talaba bilan bu haqda fikr almashganlaridan soʻng, oʻyin toʻxtatiladi va ulardan bir nechtasiga oʻz suhbatdoshi haqida guruhga qisqa maʼlumot berishi soʻraladi.

**Oʻyinning nomi:** *Sizning belgingiz qanday?*

**Oʻyinning turi:** Muzyorar

**Maqsad:** Nomlarni eslab qolish

**Vaqt:** 8-12 daqiqa va guruhning kattaligiga bogʻliq

**Guruh kattaligi:** Talabalar soni 5 tadan katta va 20 tadan kam

**Ishlatiladigan materiallar:** Hech nima kerak emas

**Amalga oshirilishi:** Barcha doira shaklida turadi va kimdir «Mening ismim \_\_\_\_\_ va mening belgim \_\_\_\_\_» deydi. Belgi sifatida biror-bir gulning nomi, tana harakati, chehra ifodasiga oʻxshaganlar berilishi mumkin. Keyingi talaba uning nomini va belgisini qaytaradi va soʻngra oʻzining nomi hamda belgisini aytadi. Undan keyingi shaxs oldingilarning nomlari va belgilarini qaytarishi hamda oʻzinikini ham aytishi lozim boʻladi. Oʻyin shu tarzda davom etib, hamma ishtirokchilar bir-birlarining ism va shartli belgilarini bilib oladilar. Agar bu oʻyinni dars boshlanishida oʻtkazsangiz, barcha tala-balar bir-birlarining nomlarini yaxshilab eslab qoladilar.

**O‘yinning nomi:** «*Guruhdagi o‘xshashliklarni aniqlash*»

**O‘yinning turi:** Muzyorar

**Maqsad:** Kichik guruhlar orasidagi o‘xshashliklarni aniqlash

**Vaqt:** 20-25 daqiqa

**Guruh kattaligi:** 20-30 o‘quvchi

**Ishlatiladigan materiallar:** O‘qituvchining tanlovi va o‘tiladigan dars materiallari bilan bog‘liq ravishda to‘plangan materiallar. Mavzuning yo‘nalish, kichik mavzu, nishonlari va shunga o‘xshashlar bilan bog‘liq obyektlar. Masalan, agar loyiha tuzish bilan bog‘liq dars o‘tayotgan bo‘lsangiz, loyihalarning nomini qog‘ozlarga yozib qo‘yishingiz mumkin va har bir shaxs o‘zini qiziqtirgan loyiha nomini tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Amalga oshirilishi:**

1. Obyektlar (masalan, loyihalarning nomlari yozilgan qog‘ozlar) solingan idishni (savatni) o‘quvchilar orasida aylantirib chiqish va har bir talabaga undan o‘zini qiziqtirgan obyektini tanlashni taklif qilish;

2. Bir xil obyektlarni tanlagan o‘quvchilarni bir xil guruhlariga birlashishlarini taklif qilish;

3. Har bir guruhga quyidagilarni muhokama qilishni taklif qilish:

a) Nega Sizning guruhingiz bir xil obyektlarni tanladi;

b) O‘z guruh a‘zolaringiz orasida bir-biriga o‘xshash tomonlar borligini muhokama qiling (masalan, qiziqishlar, tug‘ilgan kunlar, intilishlar, xobbilar va boshqalar);

v) O‘z guruh a‘zolaringiz haqida qiziqarli ravishda boshqa guruh a‘zolariga so‘zlab bering.

**O‘yinning nomi:** «*So‘zlar tuzish*»

**O‘yinning turi:** Muzyorar

**Maqsad:** Yangi guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshilab bilib olishlari uchun

**Vaqt:** 8-15 daqiqa

**Guruh kattaligi:** Har qanday kattalikdagi

**Ishlatiladigan materiallar:** Ruchka yoki qalam, qog'oz bo'laklari

**Amalga oshirilishi:**

Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqating va unda alifboning biror-bir harfini katta qilib chizishni so'rang. Keyin barcha qatnashuvchilar o'rnilaridan turib, qo'llaridagi harflardan foydalangan holda boshqalar bilan birgalikda to'rt harfdan iborat so'zlar tuzishlari kerak. Bunda quyidagilarga e'tibor berilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin:

- Tuziladigan so'zlar dars mavzusi bilan mos qilishi;
- Eng uzun so'zlar tuzishga ko'rsatma berib, uzunroq so'z topgan guruhga mukofot berish;
- O'rganilayotgan fan bilan bog'liq so'zlar tuzish.

**O'yinning nomi:** «*Mashhur insonlar*»

**O'yinning turi:** Kuchaytirgich

**Maqsad:** Darsni faollashtirish

**Vaqt:** 10-15 daqiqa

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha

**Ishlatiladigan materiallar:** Doska va bo'r

**Amalga oshirilishi:**

1. Qatnashchilarga mashhur insonlar nomlarini doskaga yozish taklif qilinadi va xohlovchilar bu nomlarni doskaga chiqib yozadilar;
2. Keyin talabalar ichidan birortasini chaqirib, mashhur insonlardan birining kimligi, faoliyati haqida so'raladi va u bu haqdagi ma'lumotlarni barchaga aytib beradi;
3. Agar bu chaqirilgan talaba hech nima bilmasa, yoki kamroq bilsa

sinfdagi boshqa xohlovchilarga bu haqdagi ma'lumotlarni to'ldirish taklif qilinadi;

3. Shunday qilib, birin-ketin talabalarni doskaga chaqirgan holda mashhur insonlar va ularning nima uchun mashhurligi haqida bilib olinadi.

**O'yinning nomi:** «*Telefon*»

**O'yinning turi:** Faollashtiruvchi

**Maqsad:** Insonlar orasidagi muloqot va bir odamdan ikkinchisiga ma'lumotlar qanday borishini ko'rsatish va o'quvchilarning qiziqishi darajasini oshirish

**Vaqt:** 10 daqiqa atrofida

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha

**Ishlatiladigan materiallar:** Hech nima kerak emas.

**Amalga oshirilishi:**

O'quvchilar xonada doira shaklida turadilar. Bir o'quvchi yonidagiga shivirlagan holda biror-bir ma'lumotni aytadi. U esa ushbu ma'lumotni keyingi shaxsga aytadi va bu ish doira bo'ylab davom etadi. Ma'lumot har bir kimsaga faqat bir martadagina aytilishi lozim. Oxirgi o'quvchi o'zi eshitgan ma'lumotni barchaga eshittirib aytadi va shundan so'ng uni boshda aytgan birinchi o'quvchi ham qaytaradi. Original va oxirgi ma'lumotlar orasidagi farq solishtiriladi va tahlil qilinadi.

**O'yinning nomi:** «*Sirli maktub*»

**O'yinning turi:** Guruh bo'lib ishlash

**Maqsad:** Bir-birini yaxshiroq bilib olish

**Vaqt:** 10-15 daqiqa

**Guruh kattaligi:** Bir guruhda yoki sinfda

**Ishlatiladigan materiallar:** Ruchka va qog'oz

**Amalga oshirilishi:**

Har bir talaba o'zi haqida biror-bir ma'lumotni yoki ma'lumotlarni

qog‘ozga yozadida, uni bir idishga soladi (savat, yashik, shlapa va hokazolar). Keyin ular yaxshilab aralashtiriladi va talabalarga ulardan bittadan olish taklif qilinadi. Ular bu ma’lumotlarni o‘qib, uni kim yozganini aytishlari kerak. Bunda ko‘pchilik sinfdoshlar bir-birlari haqida yangi, oldin bilmagan qiziqarli narsalarni bilib olishga muvaffaq bo‘ladilar.

**O‘yinning nomi:** «*Siz ajoyibsiz*»

**O‘yinning turi:** Mashg‘ulotlar oxirida o‘tkaziladi

**Maqsad:** Darsni yoki seminarni ijobiy-pozitiv ravishda yakunlash maqsadida ishlatish mumkin.

**Vahti:** 15-20 daqiqa

**Guruh kattaligi:** Xohlaganicha

**Ishlatiladigan materiallar:** Qog‘oz va ruchka

**Amalga oshirilishi:**

Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqatilib chiqiladi va uning yuqori qismiga o‘z nomlarini yozishlari so‘raladi. Endi bu varaqlar doira shaklida joylashgan guruhga tarqatilib, har bir ishtirokchidan varaqning yuqori qismida nomi yozilgan shaxs haqida yaxshi va ijobiy fikrlar yozilishi hamda uni keyingi talabaga uzatishi so‘raladi. Barcha o‘z fikrini yozib bo‘lganidan so‘ng, har bir varaq nomi yozilgan inson-ga qaytariladi. U esa o‘zi haqidagi yaxshi ma’lumotlarni o‘qib quvonadi va uni sinfdoshlaridan esdalik sifatida saqlaydi.

### **Boshqotirmalar**

Quyida keltiriladigan o‘zbekona boshqotirmalarni dars jarayonini faollashtirish bilan bir qatorda o‘quvchi-talabalarning bilim darajasi, madaniyati va ma’naviyatini oshirish uchun ham ishlatish mumkin.

1. Bir donishmand o‘quvchilariga uch turdagi aynan bir xil qo‘g‘irchoqni ko‘rsatibdi va ularning qandayligini o‘quvchilarga namoyish qilibdi: birinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘idan cho‘p tiqqan ekan, cho‘p uning ikkinchi

qulogʻidan chiqibdi, ikkinchisining qulogʻiga tiqilgan choʻp esa uning ogʻzidan chiqib ketibdi va bu choʻp uchinchisining esa ichiga tiqilib qolibdi.

## UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim islohotlarining asl maqsadi har tomonlama yetuk, ijodiy tafakkurli, sog'lom avlodni ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishdan, uning zaruriy moddiy – texnik bazasini mustahkamlashdan, ushbu jarayonni sobitqadamlik bilan rejali amalga oshiradigan o'qituvchi faoliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutgan.

1997-yil 29 avgustda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalar qatorida o'quvchini ta'lim jarayonida passiv “tinglovchi-obe'kt darajasidan, ijodiy erkin fikrlovchi” –sub'ekt darajasiga olib chiqilishi nazarda tutilgan bo'lib, ushbu vazifani amalga oshirish jarayonida ta'limning mahsuldorligini ta'minlovchi turli xil usullar va vositalardan foydalanish ham etibor darajasida qayd etilgan edi.

Bu ulkan vazifalarni amalga oshirish jarayonida kasb-hunar kollejlarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar ham samarali mehnat qilishayotganligining guvohi bo'lyapmiz.

Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizni yoritish jarayonida kasb –hunar kollejlardagi ta'limning xolati, o'qituvchi murabbiylar faoliyatida pedagogik texnologiyalarga munosabat, ta'lim samaradorligida interfaol usullardan foydalanishning mavjud holatlarini o'rganib quyidagicha xulosaga keldik.

1. Kasb – hunar kollejlarda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilar pedagogik texnologiyalardan to'la, yetarli bilishga ega emaslar.
2. Juda ko'pgina maxsus fanlardan yetarlicha o'quv adabiyot bilan ta'minlanmaganligi.
3. Hamma o'qituvchi ham darsini yangiliklar, yangi usul va texnologiyalar asosida o'qitishga qiziqmasligi.

4. O'quvchining "sub'ekt" darajasiga chiqishni "o'quvchi – o'qituvchi o'rtasidagi muvozanatning buzulishiga" olib keladi deb o'ylashlari.
5. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun albatta kompyuter texnologiyasining mavjud bo'lishini shart deb hisolashlari natijasida ta'lim berish jarayonida pedagogik texnologiyaning interfaol usullaridan yetarlicha foydalana olmayotganligini ko'rdik.

Ta'lim hamisha yangilanishni zamon bilan hamnafas bo'lishni taqazo etadi. Dunyoda kun sayin o'z o'rniga, mavqeiga ega bo'lib, rivojlanish sari dadil qadamlar bilan borayotgan davlatimiz ta'limi tizimida, jumladan o'quvchiga ham bilim va ko'nikma hamda kasbiy malaka berishga mo'ljallangan kasb – hunar kollejlari juda ko'pgina ulkan ishlarni amalga oshirib borishni taqazo etayapti. Shunday ulkan yumushlardan biri va asosiysi kasb-hunar kollejlari ta'limi jarayonida samaradorlikka erishishdir. Bu jarayonda o'qituvchidan izlanish ijodkorlik talab etilgani holda o'qitishning samarador usullarini tanlash talab etiladi interfaol metodlar ana shunday metodlar tizimiga kiradi.

Biz o'z xulosalarimiz natijasiga quyidagilarni taklif etmoqchimiz.

1. Kasb hunar kollejlari o'qituvchilari pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berishlari uchun o'zlari yetarli bilishga ega bo'lishlari lozim.
2. Har bir o'qituvchi pedagogik texnologiyalar to'g'risidagi ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun ta'lim muassasasida o'quv adabiyotlarining so'ngi avlodini yetkazib berishini tashkil etish lozim.
3. Hozir kasb – hunar kollejlari faoliyat yuritayotgan aksariyat o'qituvchilarni pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bo'yicha malaka oshirish kurslarida yoki hududiy seminar treninglarda ishtirok etishini ta'minlanishini e'tibordan

uzoqlashtirmaslik uchun kasb – hunar kollejlari boshqarmasi nazoratni kuchaytirishlari zarur.

4. Maxsus fan o‘qituvchilarining aksariyati pedagogik yo‘nalishdan uzoqdagi mutaxassis bo‘lganligi sabab ularning qayta tayyorgarlik holatini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Agar ta'lim islohotlari har bir bo‘g‘inda tizimli tashkil etilsa haqiqatan ham yaqin kunlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalar o‘z o‘rnida bajarilaveradi degan ishonchga ega bo‘lamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida» gi Qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
3. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O`zbekiston» 1999 yil.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”,
5. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston, 2011.
6. Prezident I.A.Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Halqaro konferentsiyada so`zlagan nutqidan. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.
7. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.
8. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» I-II tom.Toshkent-2002y.
9. Yo`ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yunalishlari, muammolari, echimlari. «Xalq ta'limi», 1999 yil, 4-son, 4-11 betlar.
10. Kurbonov Sh.M. Ilmiy ijod metodologiyasi. Samarqand, 2005.
11. Kuliev N.Sh. Talabalarning o`quv-tadqiqot ishlari. Buxoro, 2005.
12. Mahmudov M. O`quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son,
13. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. G`G` «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son,
14. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.
15. Oliy pedagogik o`quv yurtlarining o`quv jarayoniga pedagogik

texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000.

16. Rahimov I. Falsafa (qisqacha konspekt). T. 1998 y.
17. Sayidahmedov N. Ta'limda harakatlantiruvchi kuch. «Ma'rifat», 1998 yil, 16 yanvar.
18. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi.
19. Tulenov J. Gafurov Z. Falsafa. T. «O'qituvchi» 1997 y.
20. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. T-2006y.
21. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil.
22. Qayumov B., Abdunazarova Z. Yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z ustida mustaqil ishlashni tashkil etishning pedagogik asoslari. – T.: Angren, 2005.
23. Qurbonov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish. -Ma'rifat, 2001 yil 20 iyun, № 48.
24. Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998.
25. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., To'raqulov X.A, Haydarov M.. Pedagogika fanidan izzohli lug'at. T-2008y.
26. <http://www.bilimdon.uz>
27. <http://www.ziyonet.uz>
28. <http://www.edu.uz>
29. <http://www.local.uz>
30. <http://www.fikr.uz>
31. <http://www.pedagog.uz>

## MUNDARIJA

	KIRISH.....	3-8-bet
<b>I BOB.</b>	TA'LIMNI ISLOH QILISHNING MAZMUN VA MOHIYATI.	
<b>I.1.</b>	Ta'lim tizimida kasb-hunar kollejlarning o'rnini.....	9-19-bet
<b>I.2.</b>	Kasb-hunar kollejlarda ta'lim mazmuni.....	20-30-bet
<b>II BOB.</b>	KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.	
<b>II.1.</b>	Interfaol metodlar haqida tushuncha.....	31-42-bet
<b>II.2</b>	Umumkasbiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	43-55-bet
	UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	56-58-bet
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	59-60-bet
	ILOVALAR	